

**NOMINATIVE AND CONTEXTUAL MEANINGS OF LEXEMAS دل [DEL] AND سر [SAR] IN PERSIAN LANGUAGE****Dilorom S. Saidoripova**

lecturer

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

E-mail: d-mirzayeva@mail.ru**ABOUT ARTICLE**

Key words: Nominative meaning, contextual meaning, figurative meaning, metaphor, synecdoche and emotional-expressive meaning.

Received: 15.05.24**Accepted:** 17.05.24**Published:** 19.05.24

Abstract: In this article, the nominative meanings of Persian lexemes دل [del] and سر [sar] in translation and explanatory dictionaries were considered. The sentences with these meanings from the sources were analyzed. As a result of the research, the participation of these lexemes in the composition of words, the phenomenon of meaning transfer was studied, and it was determined that these lexemes manifest the phenomenon of meaning expansion.

FORS TILIDAGI دل [DEL] VA سر [SAR] LEKSEMALARINING NOMINATIV VA KONTEKSTUAL MA'NOLARI**Dilorom S. Saidoripova**

o'qituvchi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O'zbekiston

E-mail: d-mirzayeva@mail.ru**MAQOLA HAQIDA**

Kalit so'zlar: Nominativ ma'no, kontekstual ma'no, ko'chma ma'no, metafora, sinekdoxa va emotsional-ekspressiv ma'no.

Annotatsiya: Mazkur maqolada fors tilidagi دل [del] va سر [sar] leksemalarining tarjima va izohli lug'atlardagi nominativ ma'nolari ko'rib chiqildi. Manbalardan shu ma'nolar ishtirok etgan jumlar tahlilga tortildi. Izlanishlar natijasida ushbu leksemalarning so'z birikmalari tarkibidagi ishtiroki, ma'no ko'chish hodisasi o'rganilgan bo'lib, ushbu leksemalarning ma'no kengayishi hodisasini namoyon etishi aniqlangan.

НОМИНАТИВНОЕ И КОНТЕКСТУАЛЬНОЕ ЗНАЧЕНИЕ ЛЕКСЕМ **دل [DEL]** И **سر [SAR]** В ПЕРСИДСКОМ ЯЗЫКЕ

Дилором С. Саидоринова

преподаватель

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

E-mail: d-mirzayeva@mail.ru

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Номинативное значение, контекстуальное значение, переносное значение, метафора, синекдоха и эмоционально-выразительное значение.

Аннотация: В данной статье были рассмотрены номинативные значения персидских лексем **دل [del]** и **سر [sar]** в переводных и толковых словарях. Были проанализированы предложения с данным значением из источников. В результате исследования было изучено участие этих лексем в составе слов, феномен переноса значения и установлено, что данные лексемы проявляют феномен расширения значения.

KIRISH

Tilshunoslikda soʻzlarning alohida hamda matn tarkibida kelganda qanday maʼno anglatishiga doir baʼzi masalalar oʻz yechimini kutmoqda. Leksemalarlugʻat tarkibida oʻlik holatda boʻladi, ular aynan kontekstda, yaʼni matn tarkibida jonladi. Soʻzlarning lugʻatda anlatadigan maʼnolaridan tashqari, boshqa koʻchma yoki emotsional-ekspressiv maʼnolari kontekstda oʻz ifodasini topadi. Aynan shu kontekst tarkibida kelgan leksemaning anglatgan maʼnosiga kontekstual maʼno (lot. contextus – “zich aloqa”, “bogʻlanish”) atamasi qoʻllaniladi. Oʻzbek tilshunos olimi Azim Xojiyev kontekstual maʼno atamasini matniy maʼno tarzida olib, unga quyidagicha taʼrif beradi: Matniy maʼno soʻzning nutqiy matnga bogʻliq holda hosil boʻladigan (yuzaga chiqadigan) maʼnosidir. [1, b.61]

Mazkur taʼrifga va tadqiq qilingan nazariy adabiyotlarga asoslangan holda quyida fors tilidagi **دل[del]** hamda **سر[sar]**leksemalarining nominativ hamda kontekstdagi maʼno tarkibini, polisemantik holatini yaʼni maʼnoviy qoʻllanilishi, ishlatilishi hamda maʼnoviy boʻyoqdrolik jarayonlarini koʻrib chiqamiz.

ASOSIY QISM

Tilshunoslikda leksik mazmunli soʻzlarning strukturasi har xil taʼriflanmoqda: Ayrim manbalarda leksik mazmunli soʻzlarning ifoda plani (tovushlardan tarkib topgan moddiy tomoni) *leksema* deb, mazmun plani (ifodalanuvchisi) esa *semema* deb taʼriflanadi. Demak, leksema va semema leksik birlikning (soʻzning) oʻzaro aloqa boʻlgan ikki tomoni ekanligi taʼkidlanadi. [5, b.114]

Fors tilida دل [del] va سر[sar] leksemalari ko'p ma'noli so'zlar hisoblanadi. Ushbu leksemalarning nominativ ma'nolarini 2 izohli lug'at, ya'ni Muhammad Muinning "Farhang-e Mo'in" izohli lug'atida [6] hamda Y.A. Rubinchik tahriri ostidagi "Forscha-ruscha" ikki tillik lug'atida [4] keltirilgan ma'nolarini taqqoslash orqali ko'rib chiqamiz:

دل [del] otining Muhammad Muinning "Farhang-e Mo'in" izohli lug'atidagi ma'nolari



- 1) yurak (jonzot tanasi ichidagi qonni haydash vazifasini bajaruvchi tana a'zosi)
- 2) qorin
- 3) yurak, qalb
- 4) mardlik, jasorat, qahramonlik
- 5) noz, karashma

دل [del] otining Y.A. Rubinchik tahriri ostidagi "Forscha-ruscha" ikki tillik lug'atigi ma'nolari



- 1) yurak
- 2) qalb, ko'ngil
- 3) qorin, oshqazon
- 4) botirlik, mardlik, kuch, ruh, jasorat, jur'at
- 5) o'rta qismi

6) ichki qism

دل انسان به طور متوسط حدود 80 بار در دقیقه می تپد. [14]

[Del-e ensān be tovr-e motavasset-e hodud-e 80 bār dar dayiye mi tapid]

Insonning yuragi daqiqasiga o'rtacha taxminan 80 marta uradi.

Ushbu jumla tarkibidagi دل [del] leksemasi yuqorida keltirilgan Y.A. Rubinchik tahriri ostidagi "Forscha-ruscha" ikki tillik lug'atida ushbu so'zga berilgan ma'nolarning birichisi ya'ni "yurak" ma'nosi ifodalamoqda.

... "يازى اوجا" را خبر كنيد تا غصه هاى دلم را براى محبوبم حلیمه، با اشك بنويسد.

"Yāzi Ujā" rā xabar konid tāyosse-hā-ye delam rā barāy-e mahbubam Halime bā ašk benavisad. [7, b.14]

"Yozi Ujo"ga xabar qilinglar mahbubam Halimaga qalbim g'am-qayg'ularini ko'z yoshi ila yozsin.

Ushbu jumla tarkibidagi دل [del] so'zi yuqorida keltirilgan Y.A. Rubinchik tahriri ostidagi "Forscha-ruscha" ikki tillik lug'atida ushbu so'zga berilgan ma'nolarning ikkinchisini ya'ni "qalb", "ko'ngil" ma'nolarini ifodalamoqda.

سر [sar] otining Muhammad Muinning "Farhang-e Mo'in" izohli lug'atidagi ma'nolari

سر [sar] otining Y.A. Rubinchik tahriri ostidagi "Forscha-ruscha" ikki tillik lug'atigi ma'nolari



- 1) bosh (bo'yinning yuqori qismida joylashgan tana a'zosi)
- 2) boshliq, rais
- 3) fikr, andisha
- 4) kuch, quvvat



- 1) bosh
- 2) boshlanish qismi
- 3) tepa, yuqori qismi, uchi
- 4) oxiri, tugash qismi, qirrasini
- 5) tugash qismi

6) ust qismi

7) bosh (hisob so'z)

... و گولانی - پیش از آنکه ماشه را بکشد - سرش روی زین خم شده بود. [7, b.19]

[... va gu gelāni piš az ānke māše rā bekošad -saraš ru-ye zin xam šode bud]

Va Gu Geloni tepkini tortishdan oldin boshi egarning ustida egilgan edi.

Ushbu gap tarkibidagi سر[sar] so'zi yuqorida keltirilgan Y.A. Rubinchik tahriri ostidagi "Forscha-ruscha" ikki tillik lug'ati da ushbu so'zga berilgan ma'nolarning birinchiisini ya'ni "bosh" ma'nosini ifodalamoqda.

درشکه دو اسبهای سر کوچه میایستند [7, b.20].

[doroške-ye do asbhāi sar-e kuče miistad]

2ta oti bo'lgan arava ko'chani boshida turibdi.

Ushbu gap tarkibidagi سر[sar] so'zi yuqorida keltirilgan Y.A. Rubinchik tahriri ostidagi "Forscha-ruscha" ikki tillik lug'ati da ushbu so'zga berilgan ma'nolarning ikkinchisini ya'ni "boshlanish qismi" ma'nosini ifodalamoqda.

Ko'chma ma'noatamasiga ta'rif beradigan bo'lsak, so'zni to'g'ri ma'nosini anglatgan narsa-hodisalardan boshqa narsa-hodisalarga nom sifatida ko'chirish asosida hosil bo'lgan ma'no ko'chma ma'no deyiladi. [1, b.55]

O'zbek tilshunos olimi Sh. Rahmatullayev o'zining "Hozirgi o'zbek adabiy tili" kitobida ma'no ko'chshining metafora, funksiyadoshlik (vazifadoshlik), metonimiya, sinekdoxa turlarini berib, ularni quyidagicha izohlagan:

Biror predmet, belgi, harakatning nomi boshqasiga o'zaro tashqi (shakli, rangi kabi jihatlari bilan) o'xshashligi asosida ko'chirilsa, metafora yo'li bilan ko'chirish deyiladi (yunoncha metaphora — "ko'chirish"). [2, b.58]

Metafora yo'li bilan ko'chirishga misollar:

این رفیق ما خیلی پسر خوبی است، اما یک عیبی دارد، زیاد ترسوست... صد دفعه بهش گفته ام: آدم باید دل داشته

باشد. [8, b.54]

In rafiy-e māxeylipesar-e xubiast, ammāyekeybi dārad, ziyād tarsus... sad daf'ebehešgoftam: ādam bāyad del dašte bāšad.

Bu do‘stimizjudayaxshi bola, ammo bittaaybibor, judayamqo‘rqqoq. Ungayuzmartalabaytganman: odamdajasurelik, mardlik bo‘lishi kerak.

Ushbu jumla tarkibidagi دل [del] leksemasi ma’no ko‘chishining metafora usulida bo‘lib, unda دل [del] “jasurlik”, “mardlik” ma’nolarini ifodalamoqda.

امروز مي خواستم تنهائيم را به دل خيابان بسپرم. [9, b.32]

Emruz mixāstam tanhāiiam rā be del-e xiyābān beseporam.

Bugun yolg‘izligimni ko‘cha qo‘ynida qoldirmoqchi edim.

Ushbu jumla tarkibidagi دل [del] leksemasi ma’no ko‘chishining metafora usulida bo‘lib, unda دل [del] so‘zi “ko‘chaning qalbi, qo‘yni” ga o‘xshatilmoqda.

خدا بيمارز سرش را در راه ايماناش داد. [10, b.20]

Xodā biyāmorz sareš rā dar rāh-e imānaš dād.

Xudo rahmat qilgur iymon yo‘lida jonini bergan edi.

Ushbu gapda سر ya’ni boshi so‘zi metafora usulidagi so‘z ko‘chishi hodisasiga uchragan bo‘lib, unda سر so‘zi o‘z ma’nosi “bosh”ni emas, “jon” ma’nosini ifodalamoqda.

اگر سایه کسی به دیوار سر نداشته باشد تا سر سال می میرد. [11, b.80]

Agar sāye-ye kasi be divār sarnadāšte bāšad tāsar sāl mimirad.

Agar kimningdir soyasi devorga tushmasa, yilning boshigacha o‘ladi.

Ushbu gap tarkibida سر so‘zi ko‘chma ma’noning metafora usuli orqali “yilning boshi”ga o‘xshatish orqali ifodalanmoqda.

Bir predmetning nomi boshqa bir predmetga qism bilan butun munosabati asosida ko‘chirilishi sinekdoxa yo‘li bilan ko‘chirish deyiladi (yunoncha synekdoche — “nazarda tutish”). Sinekdoxa yo‘li bilan ko‘chirish metonimiya yo‘li bilan ko‘chirishning bir ko‘rinishi deyiladi. Sinekdoxa yo‘li bilan ko‘chirishning o‘ziga xos xususiyati miqdor belgisiga asoslanishidir. [2, b.60]

Sinekdoxayo‘li bilan ko‘chirishga misollar:

سرهایی که از خانه ی همسایه بیرون آمده، پس میروند. [12, b.2]

Sarhāyi ke az xāne-ye hamsā-ye birun āmade, pas miravad.

Odamlar qo‘shnining uyidan chiqishdi-da, ketishdi.

Ushbu gap tarkidibda سرهایی ya’ni boshlar oti qism orqali butunni ifodalab, odam ma’nosini bildirmoqda.

سرش را شانه کرد و از در خارج شد. [8, b.171]

[saraš rāšāne kard va azdar xārej šod]

Sochini taradi va eshikdan chiqdi.

Ushbu gapda سر so‘zi sinekdoxa usulidagi so‘z ko‘chishi hodisasiga uchragan bo‘lib, unda butun orqali qism, ya’ni سر so‘zi o‘z ma’nosi “bosh”ni emas, soch tolalari ma’nosini ifodalamoqda.

Otlarning kontekstdagi emotsional-ekspressiv ma’nolari haqida so‘z yuritadigan bo‘lsak, avval ekspressiv termini haqida qisqacha ma’lumot berib o‘tish maqsadga muvofiqdir.

Ekspressionizm (lot. Expression- ifodalash, izhor qilish) degan ma’nolarni anglatadi. Ekspressivlik bevosita inson his-tuyg‘ularini ifodalash bilan bog‘liq bo‘lganligi uchun uni emotsionallikdan ajratib tasavvur etish qiyin. Hatto ba’zi tilshunoslarning asarlarida ekspressivlik va emotsionallik kategoriyalari bir xil hodisa deb talqin qilinadi.

Emotsional – ekspressiv bo‘yoq so‘zning leksik ma’nosiga qo‘shimcha tarzda kishining turli hissiy munosabatlarini, uning his-tuyg‘ularini, kayfiyatini ifodalovchi belgilardir. Kishining voqelikka bo‘lgan hissiy munosabatlari, his tuyg‘ulari ijobiy va salbiy bo‘lishi mumkin.[3, b.170]

دل همچو سنگت ای دوست به آب چشم سعدی. [15]

Del hamču sang ey dust be āb-e češm-e Sadi

Tosh kabiqalbing, eydo‘st, Sadiyko‘zyoshida.

(Sa’diySheroziyG‘azallari)

Sa’diyning ushbu misrasida salbiy bo‘yoqdorlikni inson qalbining toshga o‘xshatilayotganligida ko‘rishimiz mumkin.

Ifoda semalari semema tarkibidagi uslubiy ma’no qirralaridir. Ular leksemalarning atashdan, nomlashdan tashqari, shaxsiy munosabatlarni ifodalashiga yoxud shu leksemalarning qo‘llanishi doirasini belgilashga xizmat qiladi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, fors tilidagi ot so‘z turkumi morfologiyada keng qamrovga ega bo‘lgan so‘z turkumi hisoblanadi. دل[del] va سر[sar] leksemalarini nominativ hamda kontekstual ma’nolarini lug‘atlarda kelgan hamda manbalarda asosida tahlil qilar ekanmiz, aniqlandiki, ushbu leksemalar turli jumla tarkibida o‘zining turli xil ma’nolariga ega. Kontekst tarkibidagi boshqa so‘zlarning shu so‘zga ta’sir etishi orqali ham ma’no o‘zgarishi yuz berishi mumkin ekan.

FOYDALANILGAN ADABIYOT RO‘YXATI

1. Hojiyev A. Tilshunoslikterminlariningizohlilug‘ati. – T., 2002.
2. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – T.: Universitet, 2006.
3. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. – T., 2000.
4. Персидско-русский словарь: в 2-х томах, под редакцией Ю.А. Рубинчика, 3-издание. I-том. – М.: Русский язык, 1985.

5. Толстой Н.И. Из опытов типологического исследования славянского словарного состава.–М.:Вопросы языкознания, 1963.

6. معین، محمد. فرهنگ معین. در 6 جلد. جلد 1. – تهران، 1342.
7. نادر ابراهیمی. آتش بدون دود. – تهران، 1371.
8. حسین مدنی. اسمال در نیویورک. – تهران، 1348.
9. آریان پور. تماس. هشتم ژوئن. – مسکو، 2006.
10. جلال آل احمد نون و القلم. – تهران، 1372.
11. صادق هدایت بوف کور. – بمبئی، 1927.
12. پرتو نوریعلا. فردای میهن. – تهران، 1383.
13. حسین مدنی. اسمال در نیویورک. – تهران، 1348.
14. <https://fa.wikipedia.org/wiki>.
15. <https://ganjoor.net/saadi/divan/ghazals/sh519>